

SHAXMATDAN ILK SABOQLAR



SHAXMATDAN ILK SABOQLAR

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent – 2015

UO‘T: 794.1-053.2

KBT: 75.581

A14

A14 Shaxmatdan ilk saboqlar. – Toshkent:
«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy
nashriyoti, 2015. – 32 b.

Aziz bolajonlar! Qo‘lingizdagi ushbu kitobda tengqurlaringiz Alijon va Valijon topib olgan sehrli shaxmat donalarining tilidan qadimiy shaxmat o‘yining sir-asrorlari haqida hikoya qilinadi. Ertak-dostonni nafaqat miriqib o‘qiysiz, shuningdek, shaxmat o‘yinidan dastlabki bilimlarni ham o‘zlashtirasiz. Umid qilamizki, mazkur kitob ota-onangiz, yaqinlaringizning Siz bolajonlar uchun olib bergan eng ajoyib va esda qolarli sovg‘alaridan biri bo‘lib qoladi.

UO‘T: 794.1-053.2

KBT: 75.581

ISBN 978-9943-07-386-9

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

SHAXMAT OLAMIGA SAYOHAT

Alijon bilan Valijon istirohat bog'ini sayr qilib yurib, o'zlariga yaqinroq joydagi o'rindiqlarda turgan chiroyli bir shaxmatga ko'zlari tushib qolibdi. Alijon o'rtog'ini shaxmat o'ynashga taklif etibdi. Valijon o'zining shaxmatni bilmasligini aytibdi. «Kel, bo'lmasa, senga yurishlarni o'rgataman», deb shaxmat qopqog'ini ochgan ekan, u birdan tilga kiribdi. Chunki bu sehrli shaxmat ekan-da.

Bolajonlar, sizlar shaxmat donalari tilidan aytilgan ushbu dostonni o'qisangiz, shaxmatni o'rganib olasiz. Bu aql charxini puxta o'zlashtirsangiz, kelgusida sizlardan jahon chempionlari chiqishiga shubha yo'q.

SHAXMAT:

- Boq oltmish to'rt xonamga,
Yarmi qora, yarmi oq.

U chetdagi odamga
Ko'rinar ola-quroq.
Aslida, bu - olamning,
Sirli bitigi-naqli,
Tafakkuri odamning
Taxtaga ko'chgan shakli.

Qora va oq xonada
Sakkiztadan sipoh bor.
Kuchaysin deb yanada,
Saf tortib turar qator,
Sakkiztadan piyoda.
Ular jangga shay turar,
Bir-biridan ziyoda,
Ham chaqqon-u ham xushyor.

O'ng tomoni shoh qanot,
Farzin qanot esa chap.
Ularda sir-sinoat,
Topqirlik muhim matlab.



Jami o'ttiz ikki tosh,
Bo'linib teng ikkiga,
Boshlar o'zaro kurash.
Har biri o'z chekiga
Tushgan ish-vazifani
Uddalashga kirishar.
Raqibining safini
Yorish uchun tirishar.
Qaramay o'ng-u so'lga,
Farzin yugursa shitob,
Moyildir qiya yo'lga,
Filga ish bitsa hisob.
Katakalar uzra hatlab,
Gijinglaydi saman Ot.
To'rada ulug' matlab -
To'g'riga yurish faqat.
Toshlar aro eng sodda,
Nomi uning piyoda.
Uchib yurmas havoda,
Yurar yerda piyoda.
Demasdan endi ul-bul,
Taxtaga boqmoq ma'qul.




Kechirib bir-bir ko'zdan,
So'ng toshlarning o'zidan
Tinglashga qaror qildik
Va shuni ma'qul bildik.







- Nomimiz To'ra - ulug',
Himoyamizdadir shoh,
Tutmasak ham yalov-tug',
Bo'lamiz doim ogoh.






Tursak ham ikki ortda,
Jang payti yuguramiz,
Qolib ketmaymiz chetda,
Hujumga ulguramiz.





Yo'lak va qator aro
To'g'ri yurish bizga tan.
Topilmay qolsa chora,
Qo'shqo'llab tutilar jon.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3762> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3762> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3762>